

**OILADA NIZOLARNING YARATUVCHANLIK VA BUZG'UNCHILIK  
XUSUSIYATLARINI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

*Mansurova Charos Nasrullayevna*

*Qahqadaryo viloyati Kitob tumani 45-umumiy o'rta ta'lim  
maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada oilada nizolarning yaratuvchanlik va buzg'unchilik xususiyatlarini bartaraf etishning psixologik jihatlari ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, oilada insonlararo ziddiyatli munosabatlarda uchrab turadigan ba'zi salbiy holatlar, ularni bartaraf etish yo'llari, pedagogik-psixologik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy nizo, oilaviy munosabatlar, oilaviy nizolarning yaratuvchanlik va buzg'unchiligi, ziddiyatlar, imkoniyatlar, zo'ravonlik, agressiya.

Konflikt, nizo nima va u odamlar o'rtasida qanday namoyon bo'ladi, degan savolga ko'pchilik, nizo bu – odamlarning urishishi, janjallashishi, kuch ishlatib, bir-biri bilan jang qilish, so'z aytishish, birovlarini ayblash, so'kinish, g'azablanish, jahl bilan gaplashish, kesatish, birovlarini urib-turtish, do'q qilish, qo'rqitishga urinish, ularga tahdid qilish, piching bilan gapirish, to'g'ri so'zlar mazmunini buzib talqin qilish, birovlarining orqasidan gapirish, qasd qilish, birovlariga jismoniy zo'ravonlik o'tkazish, zo'rlash, shantaj, birovlarini oyog'idan chalish, kamsitish, odamlar ustidan kulish, guruh-guruh bo'lib, birovlarini yakkalab qo'yish, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat va qasos, birovlarini mensimaslik, kibri munosabat bildirish, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, kek saqlash, nafsoniyatga tegadigan amallar va so'zlar ishlatish, birovning har biri so'zi va amalidan yomonlik qidirish va boshqa shunga o'xshash vaziyatlarni ta'kidlab aytishadi. Mana shunday insonlararo ziddiyatli munosabatlarda uchrab turadigan barcha salbiy holatlar aslida konfliktlarning turli ko'rinishlari, odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning turli namoyon bo'lish holatlariga kiradi. Mana shu salbiy xususiyatlar sabab odamlar ongida, ular tasavvurida konflikt faqat "yomonlik" sifatida aks etadi. Aslida esa konfliktning ham buzg'unchilik, ham yaratuvchanlik xususiyati mavjud bo'ladi. Xuddi shunday oilaviy nizolar ichida ham uning yaratuvchanlik imkoniyati bilan birgalikda uning buzg'unchilik imkoniyati yashiringan bo'ladi. Pedagogik jarayon ishtirokchilaridan esa konfliktning buzg'unchilik imkoniyatining rivojlanib ketishiga to'sqinlik qilish, uning yaratuvchanlik imkoniyatini esa ta'minlash taqozo etiladi [1].

"Konfliktlar yomon holatmi, yoki konfliktlarda ham o'ziga xos ijobiy tomonlar mavjudmi?! Konflikt – buzg'unchilikmi, yoki unda yaratuvchanlik xususiyatlari ham mavjudmi?! Konflikt – zo'ravonlikmi, yoki insonlarni muloqotga o'rgatuvchi asosmi?!"

Tabiiy ravishda mana shu savollarning javoblari aslida konfliktning mazmuni va mohiyati biz o'ylagan qarashlardan anchayin keng ekanligini, bizning an'anaviy qarashlarimiz esa chegaralangan va haqiqiy ahvoldan ancha uzoq ekanligini isbotlaydi. Bizning konflikt borasidagi tasavvurimiz uning

faqat bir tomoniga yo'naltirilgandir. Biz odatda konfliktning faqat bir qirrasini ko'rishga o'rganganmiz. U ham bo'lsa, konfliktda odamlar ziddiyatga kirishib, o'zaro urush, nizo, janjallar chiqarishidir. Ammo har doim ham shunday bo'laveradimi?!" [1]. Ziddiyatdan chiqib ketish uchun qilinadigan eng birinchi qadam har doim mana shu ziddiyatni keltirib chiqargan manfaatlarni o'zaro muvofiqlashtirish mumkinligiga bo'lgan ishonch va harakatdan boshlanadi. Manfaatlarni o'zaro yaqinlashtirish va muvofiqlashtirish ziddiyatni yengishning eshigini ochishdir. Konfliktni to'g'ri hal etilsa, u yaratuvchanlik qudratiga ega bo'ladi. Konflikt tomonlar munosabatlarini yanada mustahamlashi, ularni yangi mazmunda qayta qurishi mumkin. Oilaviy nizolarning xususiyatlarini anglash jarayonida ularning buzg'unchilik xususiyati barobarida yaratuvchanlik xususiyati ham borligini unda ishtirok etayotgan barcha tomonlar, ya'ni ota-onalar, farzandlar anglashi taqozo etiladi.

Oilaviy nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati quyidagilarda o'zini namoyon etadi:

Hayot yashirin imkoniyatlarga to'la jarayondir. Yashirin imkoniyatlar yangi imkoniyatlar deganidir. Konflikt mana shu yashirin holatlarni ochiq namoyon bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ochiqlikda bayon qilingan imkoniyatlar esa yangi maqsadlar, yangi hamkorlik, yangi yo'llarni muhokama etish uchun imkon yaratadi. Shunga ko'ra, oilaviy munosabatlarga nisbatan yangicha qarash, muammoni yangicha baholash vujudga keladi. Muhimi, tomonlar ziddiyatli vaziyatda bunyodkorlik va bosiqlik bilan turli qarama-qarshi fikrlarni qo'rib chiqib, ular asosida yangi hamkorlik uchun platsdarm yaratishga o'rganadilar. Bunyodkorlikka asoslangan yangi imkoniyatlarni topish jarayonida tomonlar o'z munosabati, o'z qarashlarini ochiq aytish va fikr bildirishdan cho'chimaydilar. Muhimi fikrlarni qattiq ta'ziyq bilan emas, samimiy, ishchanlik ruhida bayon qilishdir. Fikr bildirish jarayonida esa tomonlar ularni birlashtirib turgan o'rinlarni topa oladilar. Shunday qilib, muammo yechimining yangi yo'l-yo'riqlari, usullari va vositalari topilishi uchun asos yaratilgan bo'ladi. Konflikt vaziyat o'z manfaatlari uchun kurash jarayonini anglatadi. Biroq ziddiyatli vaziyatlarda o'z manfaatlariga qattiq berilish oqibatida faqat o'z fikrlarini ma'qullash jarayoniga berilib ketish, ziddiyatni buzg'unchilik tarafga olib ketishi mumkin. Shu bois, o'z fikrlarini samimiylik, ochiqlik, ratsional fikrlash, birovga quloq solish, birovning fikrlarini bosiqlik bilan eshitish, birovning fikrlari ichidagi ratsional urug'larni topa bilish taqozo qilinadi. Mana shunday qilinganda, muammo bo'yicha ikki tomonni qoniqtirgan haqiqatni topish oson kechadi. Birgalikda qilingan fikr almashuvi tomonlarni yana bir-biriga bog'lay boshlaydi. Mana shu asosda

tomonlarning yangi munosabatlari qurilishi uchun shart-sharoit yaratilgan bo‘ladi. Nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati tomonlarni umumiy g‘oya va qarashlarni topishga undaydi va rag‘batlantiradi. Tomonlar avvalgiday yashash mumkin bo‘lmay qolganini, muammoni albatta biror bir yechimga olib kelish zarurligini anglay boshlaydilar va aynan mana shu fikrni qabul qila boshlaydilar. Umumiy g‘oyani va umumiy maqsadni qidirish jarayoni tomonlarni mana shu asosda birlashtirishga xizmat qiladi.

Tabiiy ravishda umumiy maqsad va g‘oyani yaratish jarayoni tomonlarni samimiylik, mulohazakorlik, o‘z amallariga mas‘uliyatlilik, iliqlik, hurmat, e‘tiborli bo‘lish, bosiqlikka yo‘naltiradi. Umumiylik jarayoni janjal, o‘zgani behurmat qilish, jerkish, yomon so‘zlarni ishlatish jarayonini mustasno qiladi. Shunday qilib, yaratuvchanlik jarayoni tomonlar uchun samimiy va ochiq, iliq muloqot uchun imkon yaratadi va shunday munosabatlarga insonlarni o‘rgatadi. Fikr almashuv va fikriy umumiylikni qidirish jarayoni “so‘z” ning kuchi va mas‘uliyatini kuchaytiradi. Insonda o‘z fikr va qarashlarini qayta anglash va qayta baholash jarayoni boshlanadi. Qayta qo‘rib chiqishda har bir so‘zning salmog‘i sezila boshlaydi. Bu jarayonda esa yangi pozitsiyaning shakllanishi boshlanadi. Yangi pozitsiyaning shakllanib bo‘lganligi va uning tomonlar tomonidan e‘tirozsiz qabul qilinganligi ziddiyatning tugash arafasida ekanligini ko‘rsatadi [2]. Biroq real hayotda konfliktning yaratuvchanlik imkoniyati mavjudligini ko‘pchilik bilmaydi. Shunga ko‘ra, ko‘pchilik undan o‘z vaqtida to‘g‘ri va samarali foydalanishni amaliyotda qo‘llamaydi. Real hayotdagi ko‘pchilik konfliktlarda uning buzg‘unchilik imkoniyati ko‘proq amal qiladi. Konfliktning buzg‘unchilik imkoniyati kuchli xususiyat bo‘lib, tomonlar xis-tuyg‘ulari, emotsiyalari va qarashlari ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Shunga ko‘ra, konfliktning buzg‘unchilik imkoniyatidan voz kechish insondan iroda, o‘zini tutish, bosiqlik ko‘nikma va malakalarining ma‘lum darajada shakllangan bo‘lishini taqozo etadi. Agar pedagogik jarayon ishtirokchilari, xususan pedagog shaxsining o‘zi konfliktning buzg‘unchilik imkoniyati mavjudligini bilib, mana shu holatni adekvat anglab, irodasini ishga solib, tomonlarni yaratuvchanlikka o‘tkaza olsa, ziddiyat tomonlarga shaxsiy, emotsional, jismoniy, tibbiy zarar yetkazmasdan to‘g‘ri yo‘lga solingan bo‘ladi. Konfliktning buzg‘unchilik xususiyatlarini bilish va adekvat anglash ziddiyatli vaziyatni to‘g‘ri baholash va uning oqibatlari qanday bo‘lishini oldindan bashorat qilishga o‘rgatadi. Shunga ko‘ra, ota-onalardan konfliktning buzg‘unchilik imkoniyatlarini to‘liq bilish va oilaviy munosabatda ularni nazarga olish taqozo etiladi.

Oilaviy nizolarning buzg‘unchilik imkoniyati kuyidagilardan iborat:

Tomonlar e‘tibori va maqsadi konfliktning barchani qoniqtirgan yechimini topishga qaratilmaganligi. Bunda tomonlarning har biri faqat o‘z fikrlari, qarashlari va emotsiyalari ustunligi, faqat o‘z dardini anglash va mana shu emotsiyalarning “quli” bo‘lib qolish yo‘lidan ketadi. Tomonlar faqat o‘z fikrlarini anglaydilar, boshqalar

fikrini qabul qila olmaydilar. Shu bois, ular barcha tomonlar bildirayotgan qarashlar ichida ratsional fikrlarni ham ko'ra olmaydilar. Ular asta-sekin o'zlarini xudbin "egoist" lar sifatida tuta boshlaydilar. Ular uchun faqat ularning maqsadi rol o'ynay boshlaydi. Bu esa ularga konfliktning yaratuvchanlik tomon o'zgarishi uchun halaqit beradi. Ular o'z emotsiyalari botqog'iga botib, u yerda qotib qoladilar. Mana shunday holat vujudga kelganda, konflikt yechimi topilmaganligi va uni boshqarish imkoniyati boy berilganligini anglatadi. Konfliktning buzg'unchilik imkoniyati tomonlar salbiy emotsiyalarining ochiq namoyon bo'lishi va tashqari chiqarilishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, tomonlar "nimani o'ylasa, shuni gapira" boshlaydi. Biroq, emotsional jazava paytida aytilgan so'zlar har doim ham haqiqatga asoslangan bo'lmaydi, yoki mana so'zlarni aytayotgan odamning "asl" fikrlarini bildirmaydi. Emotsional jazava vaqtida odamlar turli xil "bo'lmagan" gaplarni ham kashf qilib, aytib yuborishi mumkin. Mana shunday g'azab, jahl, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat va qasos xissiyotlari konfliktning buzg'unchilik imkoniyatini "boqadi" va uni kuchaytiradi. Uning oqibatida tomonlar o'rtasidagi munosabat tiklab bo'lmas darajada barbod bo'ladi. Binobarin, oilaviy nizolar rivojining mana shunday bosqichlarida butun mahorati va bilim, malaka va ko'nikmalarini ziddiyat va uni yengib o'tishga, aslida esa buzg'unchilikdan yaratuvchanlik imkoniyatiga o'tishga sayi-harakat qilmog'i taqozo etiladi. Oilaviy nizolarning ham unda ishtirok etayotgan barcha tomonlar va ular vakillarini ba'zan juda kattiq stress holatiga tushirib qo'yadi. Qattiq stress holatini ota-onalar ham, farzandalar ham, oila a'zolari ham boshidan o'tkazishi mumkin. Agar stress holatini yengib o'tishga katta insonlarning biroz malakasi va hayotiy tajribasi bo'lsa, oilaviy nizolarni kattalashib ketishga imkon bo'lmaydi. Yangi oila qurganlarga esa malaka va hayotiy tajriba mavjud emas, shuning uchun statistika bo'yicha ajrimlar shu davrda ko'p kuzatiladi. Oilaviy nizolar davrida eng katta zarba, yangi kelinga, uning psixologik holatiga tushadi. Binobarin, stress holatiga tushgan inson, eng ijtimoiy ko'makka muhtoj inson sanaladi. Oilaviy nizolar ishtirokchilari bir makonda uchrashishga baribir majburdirlar. Shunga ko'ra, ular o'rtasida nizo mavjud bo'lsa ham, ular oilaviy xayot jarayonida o'zaro muomala qilishga majbur sanaladi. Demak, oila a'zolari mana shu holatni tez yengib va bosib o'tishga say' qilmog'i, aslida bunday holatning vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligi darkor bo'ladi. Uzoq muddat davom etadigan mana shunday oilaviy nizolar barcha a'zolarining asabini izdan chiqaradi, bolani esa, uzoq muddat nizoli vaziyatda boshqa odamlarga qarshi kurashishga o'rgatadi. Bola esa bunday kurashni bilganidan, bilmagani yaxshi sanaladi. Konflikt tomonlarning bir-biriga (insonga) qarshi muntazam kurashini anglatmaydi. Faqatgina qarashlar xilma-xilligini anglatadi, xolos. Ba'zi oilaviy nizolarda tomonlar o'zini butunlay izdan chiqarib yuborib, kichik bir muammoni ham juda katta muammo sifatida baholash, unga qarshi chora-tadbirlar ko'rish, o'z tomoniga adolatli asosda bo'lmasa ham, tarafdorlarni yig'ish yo'lga o'tib olishadi. Bunda konflikt faqatgina

ikki kishi o'rtasidagi konflikt bo'lmay qoladi. Bu katta nizolarga aylanadi. Natijada tomonlar qarama-qarshiligi vujudga keladi. Konfliktida ishtirok etayotgan odamlar soniga to'g'ri proporsional tarzda konflikt ichidagi emotsiyalar va g'azab, qahr kabi his-tuyg'ular ham ortib boradi. Shunga ko'ra, konflikt vaziyat vujudga kelgani uning ilk boshlanish davrida nechta odam tarkibiga kirgan bo'lsa, mana shu odamlar tarkibida uni yengib o'tgan ma'qul sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, eng og'ir konflikt vaziyat, u zo'ravonlik, jabr, urushga aylanganida sodir bo'ladi. Zo'ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Odam o'z xissiyotlari ustidan nazorat o'tkaza olmasligi yoki o'zini tiya bilmasligi uning zo'ravonlikka ruju qo'yishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlik insonning kuchli ekanligini emas, balki, aksincha uning kuchsiz va irodasiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, erlar o'z xotinlariga zo'ravonlik o'tkazganda, bunday zo'ravonlik irodasizlik belgisi sifatida baholanishi tabiiydir.

#### **Adabiyotlar:**

1. To'ychiyeva G.U. Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish. - Toshkent: 2008. - 128 b.
2. Temina S. Yu. Konflikti shkoli ili shkola konfliktov. Vvedeniye v konfliktologiyu obrazovaniya. – Voronej: 2002, - 144 s.
3. Stepanov Ye.I. Sovremennaya konfliktologiya: Obshiy podxod k modelirovaniyu, monitoringu menedjmentu sotsialnix konfliktov: Uchebnoye posobiye. — M.: Izdatelstvo LKI, 2008. —176 s.
4. Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Participant's manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1997.